



SHAMSUDDIN SAMARQANDIYNING QUR'ON ILMLARI BO'YICHA
YOZGAN ASARLARI

Raymberdiyev Ahad Shuxratovich

Anotatsiya: ushbu maqolada alloma qiroat olimlaridan biri hisoblangan mashhur olim Shamsuddin Samarqandiyning yozgan asarlari haqida atroflicha malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Al-qiroatu-s-sab', Al-mabsut fi-l-qiroati-s-sab' qiroat, as-sanoiy, At-tajrid fi-t-tajvid.

Qur'on ilmlari islomiy ilmlar ichidagi eng ahamiyatli ilmlardan biridir. Chunki qur'on ilmi mo'min-musulmonlar uchun eng muqaddas bo'lgan Qur'oni karimga bevosita bog'liq ilmdir. Qur'onshunoslik ilmlari bevosita qur'oni karimning nozil bo'lishi, uning jamlanishi, qiroati, tajvidi, shuningdek, tafsir ilmlarini va yana boshqa ko'plab qur'oni karimga bog'liq bo'lgan bir qancha ilmlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Qur'oni karimni dastlab bitta mus'hafda jamlashlik uchinchi xalifa Usmon ibn Affon (r.a) ning davrlariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda rasmul qur'an (qur'oni karimni yozishlikka oid ilm) paydo bo'lgan deyishligimiz mumkin bo'ladi.

To'rtinchi xalifa Ali ibn Abu tolib (r.a) davrlarida xalifaning buyrug'i bilan Abul asvad ad-duvaliy qur'oni karim harfariga belgilar, ba'zi bir qoidalarni ishlab chiqdi. Bunga sabab, qur'oni karimda turli xil xato kamchiliklarni oldini olish maqsad qilingan edi. Ummaviylar davriga kelib esa, qur'oni karimning tafsir ilmi, sababun nuzul ilmi, nosix va mansux ilmi shuningdek, g'aribul qur'on ilmi ham shu davrlarda shakllandi. Tobeinlar davrida bir qancha tafsir kitoblar yozila boshlagan, ularga misol "tafsir mujohid" tafsir muqotil" shuningdek, sufyon ibn unayna Vakiy ibn jarrohlarning tafsir kitoblarini keltirishimiz mumkin.

Tafsir ilmidan tashqari qur'oni karimga aloqador bo'lgan yana boshqa ilmlar borasida ham kitoblar yozildi. Ularga misol tariqasida Ali ibn madiniy (234- xijriy yilda vafot etgan) "Asbabun nuzul" asari Abu ubayd al-qosim ibn salamning (224-vafot etgan) nosix va mansuxga doir asarlari shuningdek, Abul hasan huvfiyning "Al burhan fi e'robil qur'an" ushbu asar o'ttiz jilddan iborat bo'lib, u qur'oni karimning e'robi haqida yozilgan dastlabki asar hisoblanadi.

Ibn taymiyaning usul at-tafsirga oid risolasi ham qur'onshunoslik oid bir qancha mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, Jaloliddin suyuting "Itqon fi ulumil qur'an" asari ham ko'plab qur'on ilmlarini o'z ichiga olgan mashxur asarlar qatoriga kiradi.

Alloma Shamsuddin Samarqandiy ham qur'on ilmlari bo'yicha bir qator asarlar yozib qoldirgan bo'lib, uning ilmiy meroslaridan bizga ma'lum bo'lgan asarlari:

- kichik kitobcha bo'lgan „As-sanoi (Mahorat),
- jadvali bilan yozilgan „Al-qiroatu-s-sab' (Yetti xil qiroat),
- Kashfu-l-asror fi rasmi masohifi-l-amsor (Turli shaharlardagi mushaflarning yozuvidagi sirlarning kashf etilishi),
- At-tajrid fi-t-tajvid (Tajviddagi tajrid), nazm qilib bitilgan,

- Al-aqdu-l-farid fi nazmi-t-tajrid (Tajrid nazmidagi yagona marjon),
- Al-mabsut fi-l-qiroati-s-sab' (Yetti xil qiroatdagi mufassal ma'lumot),
- Izohu-l-xavo-lif fi rasmi masohifi-s-savolif (Salaflar tomonidan ko'chirilgan Mushaf nusxalaridagi xatlarning turli-tumanligiga izoh),
- Izohu-l-qavoid fi-l-muammo (Muammo janri haqidagi qoidalarga izoh),
- Ravhu-l-mu-rid fi sharhi-l-'iqdi-l-farid (Yagona marjon sharhidagi shogirdning shodligi),
- Al-qasidatu-l-foiha fi tajvidi-l-fotiha (Fotiha tajvidida keng (yoqimli) qasida“) va uning sharhidan iborat bo'lgan kitoblardir.

Alloma ushbu kitoblarni har tomonlama chuqur mulohaza bilan bitib, o'z davrining yirikolimi darajasiga yetishgan.

Allomaning yozgan asarlari qiroat ilmini o'rganishlikda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Eng zarur ilmlardan biri bo'lgan qiroat ilmi Alloh taoloning kalomini o'z o'rniga qo'yib, tartib bilan to'g'ri o'qishga xizmat qiladi. olim bu tuyg'uni his qilib qiroatga tegishli bo'lgan mana shunday asarlarni bitishga jazm qilgan.

Alloma temuriylar davri, aynan Amir Temur hukmronlik qilgan vaqtda yashab ijod etgan. Amir Temur allomaning asarlarini mutolaa qilib chiqqan va As-sanoi' (Mahorat) asari haqida: "Alloma kitobda Mus'hafni o'qishda lozim bo'ladigan yo'l-yo'riqlarni o'z xati bilan yozgan. Ular bir necha mingga yetadi va u (kitobcha) qiroatga taalluqli bo'lgan muhim foydalarni o'z ichiga olgan" degan. Alloma o'zining ilmiy meroslarida Qur'on lug'atlarini, kalimalarining tahriri harflarini maxraj va sonlarini bilish, so'zlar, oyatlar, suralar, bo'limlar haqida va barcha qoidalarni o'rganib ijod qilgan.

Afsuski, bizdagi ma'lumotlarda allomaning asarlari saqlanib qolganmi, yo'qmi va mavjudlari qayerda saqlanayotgani to'g'risida keltirilmagan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Saxoviy. Az-zu'u-l-lomi'. J. 2. — Bayrut: Doru-l-jiyl, 1992. — B. 194-195.
2. Ibn Hajar Asqaloniy. Inbou-l-g'amr bi abnoi-l-umr. J. 4. — Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 1986. — B. 263.
3. Zirikliy. Al-a'lom. J.7. Doru-l-ilm li-l-malayin, 2002. — B. 87.
4. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. — Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016. — B. 591-593.